

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

TEHNOLOGIYA FAKUL'TETI

“MENEJMENT” KAFEDRASI



**5230200 “MENEJMENT” TA`LIM YO`NALISHIDA TAXSIL
OLAYOTGAN TALABALAR UCHUN “STRATEGIK MENEJMENT”
FANIDAN KURS ISHLARINI BAJARISH BO`YICHA
USLUBIY KO`RSATMA**

NAMANGAN – 2016 yil

Ushbu uslubiy ko`rsatma «Menejment» ta`lim yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, unda talabalar tomonidan VI-semestrda “Strategik menejment” fanidan kurs ishini bajarish bo`yicha ko`rsatmalar berilgan.

Uslubiy ko`satmada kurs ishining bajarish va ximoya qilish uslubi, kurs ishi mavzusini tanlash, mavzuni yoritish jarayonida adabiyotlar bilan ishlash, korxonalardan ma'lumotlarni to`plash va ular bilan ishlash, kurs ishini tarkibi, hajmi va uni tartibga keltirish hamda himoya qilish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar

i.f.n., dots. R. Ismatov

ass.O.Ahmedov

Taqrizchilar

i.f.n. A.Yo`ldashev NamMPI Kasb ta'limi
(iqtisodiyot) kafedrası dotsenti

i.f.n. I. Sirojiddinov NamMPI Kasb ta'limi
(iqtisodiyot) kafedrası dotsenti

Uslubiy ko`rsatma “Menejment va iqtisodiyot” kafedrasining 2016 yil 28 avgustdagi umumiy yig'ilishida muhokama qilingan va mahqullangan Bayyonnoma № 1

Kafedra mudiri

dots. T.Dadaboyev

Institut uslubiy kengashining 2016 yil _ yanvardagi yig'ilishida muhokama qilinib, chop etishga tavsiya qilingan. Ro'yxat raqami №. __

«STRATEGIK MENEJMENT» FANI BO`YICHA KURS ISHINI YOZISH VA HIMOYA QILISH USLUBI

Tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko`lamini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlar yaratish mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning ustivor yo`nalishlaridan biridir.

Strategiya umumiy tarzda firmaning mavqeini mustahkamlash, istehmolchilarning talablarini qondirish va qo`yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqarish rejasidir. Aniq strategiyani tanlash – rivojlanishning mumkin bo`lgan turli yo`llari va usullari ichidan eng maqbulini tanlab olish demakdir. O`zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash sharoitida strategiyani to`g`ri tanlash xar bir korxona, firma, kompaniya uchun dolzarb masaladir.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish xal qiluvchi ustivor yo`nalishiga aylandi.”¹

Ana shu masalalar bo`yicha haqiqiy ahvolni atroflicha o`rganishimiz, hozirgi vaqtda mutaxassislar tayyorlanayotgan har qaysi ixtisoslik yo`nalishi real hayot talablariga qay darajada javob berishi, unga nafaqat bugungi, balki yaqin istiqbolda qanday ehtiyoj borligini har tomonlama chuqur aniqlashimiz lozim.

Keyingi 10 yillikda ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va savdo korxonalari faoliyat olib boradigan muhit tubdan o`zgardi. Ayrim raxbarlarga iqtisodiy bilimning, raqobat kurashi sharoitida ishlash tajribasining yetishmasligi korxonalarni tang iqtisodiy ahvolga solib ko`ymoqda. SHuning uchun bo`lajak menejerlarga «Strategik menejment» fanini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda, ularda iqtisodiy tafakkurni, mustaqil fikrlashni, ijodiy ishlash qobiliyatini shakllanishida hamda ishlab chiqarish korxonalari, milliy xo`jalik tarmoqlari, iqtisodiy rayonlar va mamlakatlar iqtisodiyoti, ularni rivojlantirish, strategik boshqarish to`g`risida o`z fikr-muloxazalarini bayon etishda talabalar tomonidan bajariladigan kurs ishlari katta ahamiyatga ega.

CHunki, talabalar kurs ishini bajarish jarayonida Strategik menejmentning qonun va qonuniyatlari, o`zgaruvchan va moslashuvchan bozor xo`jaligi, sanoat, qurilish, transport va xizmat ko`rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyati va ularni strategiyalari bilan tanishadilar. Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlangan mamakatlardagi yirik korxona va firmalarning faoliyat natijalarini shu jumladan O`zbekiston Respublikasini ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning o`rni to`g`risida, davlatimizni tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish, ilmiy-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiiq qilish natijasida ishlab chiqarishdagi tarmoq

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.:Ўzbekiston.2010-62 bet.

va xududiy o'zgarishlarni o'rganadilar, bir-biri bilan taqqoslaydilar va xulosa chiqaradilar. Natijada, talabaning ma'lum bir ishlab chiqarish sohasida, tarmoqlarda, iqtisodiy rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va korxonalarni boshqaruv strategiyalarini taqqoslash va oqilona yo'nalishlari to'g'risidagi mulohazalari kengayadi. Bu esa keyinchalik talabalarning bitiruv malaka ishini bajarish jarayonida hamda amaliy faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kurs ishini yozish jarayonida talabalar avvalo, mamlakatimizda hamda rivojlangan davlatlar firmalari, kompaniyalari va korxonalarida strategik rejalashtirish, strategik boshqarish, marketing strategiyasi kabi yo'nalishlar bo'yicha menejrlarning amaliy faoliyatlari va bu soxalarda izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlar tomonidan yaratilgan ko'plab nazariy xarakterga ega bo'lgan asarlardan foydalanadilar. Ana shu asarlar bilan tanishib chiqish, kerak bo'lgan joylarda esa ularni tanqidiy o'rganish, g'arbda chiqqan adabiyotlar bilan taqqoslash so'ngra xulosalar chiqarish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bu talaba uchun iqtisodiyot bilan bog'liq bilimlar majmuasini puxta egallashning dastlabki shartidir.

Talabalar o'zlari tanlagan mavzulari bo'yicha kurs ishlarini bajarish jarayonida kafedradan dastlabki iqtisodiy statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularni tartibga solish, faoliyat yuritayotgan korxonalar iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, maxsus adabiyotlardan, arxiv, jurnal va gazeta materiallaridan qanday foydalanish yuzasidan aniq maslahatlar oladilar.

Kurs ishi oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati beriladi. Adabiyotlar alfavit ko'rsatkichi bo'yicha quyidagi tartibda: muallifning familiyasi va ismi, kitob yoki maqola nomi, jurnal nomi, chiqqan yili va soni, chiqqan joyi va yili ko'rsatiladi. Kurs ishining eng asosiy talabi to'la mustaqillik bo'lib, talabaning mulohazasi, qobiliyati ijodiy tafakkurini aniqlashdan iborat. SHuning uchun kurs ishida tug'ridan-to'g'ri darslik, o'quv qo'llanmalaridan ko'chirib qo'yish aslo yaramaydi. Bunday holat uchragan taqdirda kurs ishi ximoyaga qo'yilmaydi.

Kurs ishida foydalanilgan ma'lumotlar va adabiyotlardan olingan materiallarga xavolalar aniq ko'rsatilishi lozim.

Kurs ishiga ilova tarzida Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini diagramma, jadvallar, foto-suratlar ilova qilinadiki, bu kurs ishini mazmun jixatidan boyitibgina qolmasdan, balki talabalarning kurs ishini bajarishga mustaqil yondashuvini va bilimini mustaxkamlash namunasi bo'lib xizmat qiladi.

1. Kurs ishining maqsadi, vazifasi va bajarish tartibi

«Strategik menejment» fani bo'yicha bajariladigan kurs ishi va uni himoya qilish o'quv jarayonining zarur qismi hisoblanadi.

Kurs ishining maqsadi – talaba tomonidan nazariy bilimlar to'la o'zlashtirilgandan so'ng, uning ushbu fan bo'yicha mustaqil ishlash qobiliyati, ilmiy izlanish ishlariga yo'naltirish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik masalalari bo'yicha tashabbusini rivojlantirishdir.

Kurs ishining vazifasi – «Strategik menejment» fanidan talabalar bilimni yanada chuqurlashtirish, korxona, kompaniya va firmalarni boshqarishda

strategiyalar ishlab chiqish, turli iqtisodiy tizimlarda marketing tadqiqotlarini olib borish hamda oqilona ishlab chiqilgan strategiyalar bilan yuqori samaradorlikka erishish yo'llarini izlab topishdan iboratdir.

Kurs ishi bajarib bo'lingandan so'ng, uning birinchi varianti kafedraga topshiriladi va uni ilmiy rahbar tomonidan tekshirib, ko'rib chiqilgandan so'ng unga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

Tegishli o'zgartirishlar va tuzatishlardan so'ng kurs ishi muqovalanadi (1-ilova) va kafedraga himoyadan 20 kun oldin topshiriladi.

2. Kurs ishi mavzusini tanlash

Talabalar kurs ish mavzusini tanlashda kafedra tomonidan ishlab chiqilgan kurs ishlari mavzulari bankidan o'zlari qiziqadigan mavzuni tanlashadi va uni kafedrada ro'yhatdan o'tkazishadi. Kafedra roziligi bilan talabalar tomonidan tanlangan mavzu o'zgarishi xam mumkin, xatto kurs ishlari mavzulari bankida ko'rsatilmagan boshqa bir mavzuni tanlashlari, uni kengaytirilgan yoki qisqartirilgan taxrirda o'zgartirishlari mumkin.

Talabalar tomonidan tanlangan kurs ishi mavzusi o'zlari yashayotgan xududlarda, Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlar, korxonalar, aksionerlik jamiyatlari, xorijiy korxonalar yoki mashuliyati cheklangan jamiyatlar misolida, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari, strategik rejalarini taxlillariga asoslanib bajariladi.

Talabalar tomonidan kurs ishi mavzusini keyinchalik yoziladigan Bitiruv malaka ishi mavzusiga moslab tanlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Foydalaniladigan adabiyotlar ustida ishlash

Kurs ishini yuqori darajada sifatli bajarish ko'p jixatdan respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlarni tanlash hamda ularni chuqur o'rganishga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlarni tanlash va o'rganish tanlangan mavzu bo'yicha bo'lishi lozim. Bu jarayon talaba tomonidan ijodiy yondashgan xolda mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Adabiyotlarni tanlash va o'rganishni kurs ishi mavzusini tanlangan kundan boshlamoq zarur. Bunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgartirishlar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo'yicha qobul qilingan Qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, xukumat yo'riqnomalari, taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan chop etilgan ilmiy asarlarga chuqur ehtibor berish lozim.

Talaba har bir to'plagan adabiyotni o'z mavzusiga tegishli qismini qayta-qayta o'qib, ulardan foydalangan xolda O'zbekiston respublikasi va Namangan viloyati statistik mahlumotlarini, korxonalarni iqtisodiy ko'rsatkichlarini taxlil qilib, ularni ijobiy va salbiy tomonlarini kurs ishida aks ettirishi lozim.

4. Korxonalardan mahlumotlarni to'plash va ular ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar

Kurs ishini bajarishni o'ta muhim va mashuliyatli tomonidan biri tanlangan mavzu bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining mahlumotlarini to'plash va ular ustida ishlashdir. Mahlumotlarni to'g'ri tanlab, ularni to'la to'plash va taxlil etish kurs ishini sifatli bajarilishiga olib keladi.

Agar kurs ishida ko'rsatkichlarni solishtirish zaruriyati tug'ilsa, talaba kurs ishi raxbari bilan kelishgan xolda boshqa korxonalarining materiallarini xam olishi mumkin.

Korxona mahlumotlarini o'rganish bo'yicha materiallarni to'plash (topshiriq va xisobot xujjatlari, strategik rejalar, korxonani biznes rejasi, uni rivojlantirish dasturlari va x.k) bilan bir qatorda talaba ular asosida qo'shimcha xisob-kitoblar qiladi va tahlillar o'tkazadi. Bu o'z navbatida kamchilliklarni aniqlash, muammolarni yechimini topish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalaridan olingan barcha xujjatlar, dalolatnomalar shu korxona mahlumotlari bilan to'ldirilgan bo'lishi shart. Xar bir xujjatni to'ldirishda ushbu xujjatning mohiyati va zarurligini to'la tushunib yetmoq, uning ishonchliligiga iqror bo'lmoq zarur.

5. Kurs ishining tuzilishi, mazmuni va tarkibi

Kurs ishini bajarishda mavzu bo'yicha ko'riladigan masalalarning tasdiqlangan rejaga mos kelishi va qo'yilgan masalani to'la yoritishga aloxida ehtibor bermoq kerak. Kurs ishining mazmunini to'la ochib berish uchun u qator bo'lim va boblardan iborat bo'lishi kerak.

Kurs ishining tuzilishi (strukturasi) ning optimal ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin: kirish, uchta bob, bo'limlar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar.

Kirish qismida - kurs ishi mavzusini tanlashning asoslanishi, uning dolzarbligi tavsifi va mohiyati, vazifalari shu bilan birga kamchilliklarni xal etishga xarakat qilinishi bayon qilinadi.

Birinchi bob – kurs ishi mavzusini nazariy va iqtisodiy tavsifi, uni iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish va boshqarish samaradorligini oshirishdagi roli, o'rni, mohiyati, xususiyatlari, zarurligi va vazifalariga keng to'xtalib o'tiladi.

Bu bobda tegishli iqtisodiy qonunlarning mohiyati va ularni ishlab chiqarish korxonalariga qo'ygan talablari ochib beriladi. SHu maqsadda mavzuga tegishli darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy monografiyalar, risolalar va maqolalardan keng foydalanish zarur.

Ushbu nazariy asoslashlar keyingi bo'limlarda bayon qilinadigan amaliy xolat, muammo va kamchiliklar bilan bog'lanishi va u bo'limga asos bo'dishi kerak.

Ikkinchi bob – tanlangan mavzu bo'yicha kurs ishi yoziladigan korxonaning moliyaviy xo'jalik xolati, bajarayotgan xo'jalik ishlari, yutuqlari, kamchiliklari va muammolarini batafsil yoritiladi. SHu bilan birga kurs ishida zarur bo'lsa, boshqa

tarmoq yoki xorijiy davlatlar firmalari bilan solishtirma taxlil ishlari amalga oshirilishi mumkin. Taxlil natijasida ichki imkoniyatlarni ochish va unga ijobiy xamda salbiy taʼsir etuvchi omillarni aniqlash zarur.

Uchinchi bob – tanlangan mavzu boʻyicha ikkinchi bobda aniqlangan kamchilik va muammolarni xal etish yoʻllari bayon etiladi.

Bu borada talaba tomonidan oʻrganilgan ilmiy va amaliy fikrlar yoki uni taklif etgan tavsiyalari aks ettiriladi.

Taklif etilgan tavsiyalarni tegishli korxonada qoʻllash natijasida qanday iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olinishi xisob-kitob qilish yoʻli bilan yoritiladi. Chunki taklif etilgan tavsiya yoki takomillashtirish yoʻllari, albatta, iqtisodiy, ijtimoiy samara berishi yoki korxonani boshqarish tizimini soddalashtirishi va rivojlantirishi lozim.

Xulosa qismida - bajarilgan kurs ishi natijasida olingan xulosalar, kiritilgan tavsiya va takomillashtirish yoʻllari qisqacha koʻrinishda bayon qilinadi. Xulosa qismida talaba tomonidan bajarilgan kurs ishi, uning natijalari, tavsiya va takliflarini ishlab chiqarish korxonalariga qay darajada qoʻllash mumkinligi va uning natijasida qanday ijobiy iqtisodiy koʻrsatkichlar olinishi bayon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar – bu boʻlimda kurs ishini bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ruyxati keltiriladi. Bu ikki qismdan iborat boʻlib, birinchi qismda Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, ikkinchi qismda esa iqtisodiy kitoblar, risola va maqolalar alfavit tartibida keltiriladi.

Ilovalar – bu boʻlimda kurs ishiga tikiladigan xujjatlar, mahlumotnomalar va jadvallar, raqamlangan tartib soni koʻrsatilgan xolda keltiriladi.

6. Kurs ishini tartibga solish

Kurs ishining tushuntiruv qismi 35-40 varaqdan iborat boʻlib, qoʻlyozma tarzida bajarilishi shart. Kurs ishiga tegishli grafiklar, diagrammalar, jadvallar amaldagi talablarga mos kelishi kerak.

Matnni yozish tartibi – kurs ishining matni aniq, tushunarli va yuqori savodxonlik darajasida orfografik va stilistik xatolarsiz yoziladi. Kurs ishini sodda, aniq va tushunarli qilib yozilishi uning yuqori darajada bajarilishi belgilaridan biri xisoblanadi.

Matnni joylashtirish tartibi – kurs ishini matni standart oq qogʻozni bir tomoniga yoziladi. Bunda ushbu qogʻozni chap tomonidan 3sm, oʻng tomonidan 1,5sm, tepa qismidan 1,5sm va pastki qismidan 2sm joy tashlanadi.

Xisoblash formulalari tushunarli va aniq qilib qoʻlda yoziladi. Jadvallar, rasmlar, sxema, grafik va chizmalar xam oq qogʻozga yuqoridagi talablarga amal qilgan xolda kurs ishini tushuntiruv qismida keltiriladi va nomerlanadi.

Kurs ishida soʻzlar va terminlarni qiqartirilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Boshqa mualliflar va yoʻriqnomalardan keltirilgan fikrlar, gaplarni qoʻshirnoq ichiga olinib, adabiyotning yoki manbaaning muallifi, adabiyotni yoki maqolaning nomi, chop etilgan shaxri, nashriyoti, yili va beti mazkur saxifaning pastki qismida koʻrsatib qoʻyilishi zarur. Korxona mahlumotlarini aks ettiruvchi xujjat va mahlumotlar kurs ishining ilovalar qismiga oʻtkaziladi, matnda esa qaysi ilovaga qarash kerakligi koʻrsatib oʻtiladi.

Varaqlarni raqamlash – kurs ishining varaqlari, jadval va grafiklar, sxema va ilovalarning barchasi oxirgi varaqqacha raqamlanib chiqiladi. Birinchi titul qismi bo`lib, unga “1” raqami qo`yilmaydi, ikkinchi varaq mundarija bo`lib, unga “2” raqami qo`yiladi va x.k. Raqam xar bir varaqning pastki qismining o`rtasiga qo`yiladi.

Talaba kurs ishining muallifi sifatida unda keltirilgan ma'lumotlar va ko`chirilgan gaplarning to`g`riligiga to`la javob beradi. Kurs ishi kafedraga topshirilgandan so`ng unga o`zgartirishlar kiritish va to`g`rilashga ruxsat berilmaydi.

Kurs ishini bajarishga qo`yilgan talablarga javob bermaydigan kurs ishi himoyaga qo`yilmaydi.

Materiallarni joylashtirish – kurs ishining materiallarini quyidagi tartibda joylashtirish maqsadga muvofiq:

1. Titul varag'i
2. Mundarija
3. Bob, bo`limlar
4. Foydalanilgan adabiyotlar
5. Ilovalar

Talabalar tomonidan bajarilgan kurs ishi talab darajasida bo`lmasa qayta ishlashga qaytariladi va himoyaga qo`yilmaydi.

Talab darajasida bajarilgan kurs ishi himoyaga ruxsat etilgan hisoblanadi va talabaga taqrizchining ko`rsatgan kamchiliklari bilan tanishib chiqishi uchun himoyadan kamida 3 kun oldin qaytarib beriladi.

Kurs ishining himoyasi kafedra tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida amalga oshiriladi. Himoya uchun talabaga 10-12 minut vaqt beriladi. Kurs ishlari kafedra yig`ilishi va fakulgtet kengashi qarori bilan bitiruv malakaviy ish sifatida davom ettirilishi ham mumkin.

7. Talabalar tomonidan “Strategik menejment” fanidan bajariladigan kurs ishi mavzularining taxminiy rejalari

Mavzu: Biznesning ichki va tashqi muxitidagi o`zgarishlar

I. Kirish

I. Bob. Biznesning ichki va tashqi muxitini o`rganishni nazariy asoslari

- 1.1. Biznesning ichki muxiti taxliliga yondashuv
- 1.2. Biznesning tashqi muxiti va uning xususiyatlari
- 1.3. Xalqaro biznes muxiti

II. Bob. Namanganmash aksionerlik jamiyati xo`jalik faoliyatining ichki va tashqi muxitidagi o`zgarishlar

- 2.1. Namanganmash aksionerlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati tavsifi

2.2. Namanganmash aktsionerlik jamiyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili

2.3. Namanganmash aktsionerlik jamiyati faoliyatidagi ichki va tashqi muhit o'zgarishlari

III. Bob. Namanganmash aktsionerlik jamiyati iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari

3.1. Korxonaga tashqi muxit tahsirlarini kamaytirishda menejerning roli

3.2. Korxona ichki muxitini yaxshilash yo'nalishlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

Mavzu: Korxonani biznes strategiyasi

I. Kirish

I. Bob. Biznes strategiyasini tanlashning nazariy asoslari

1.1. Strategik rejalashtirish va uning bosqichlari

1.2. Strategiyani tanlash xususiyatlari

1.3. Strategik xo'jalik zonalari zonalari va markazlarini tanlash va tuzish tartibi

II. Bob. Namanganmexmash aktsionerlik jamiyati xo'jalik faoliyatini rivojlantirish strategiyasini taxlili

2.1. Namanganmexmash aktsionerlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati tavsifi

2.2. Namanganmexmash aktsionerlik jamiyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili

2.3. Namanganmexmash aktsionerlik jamiyati faoliyatini rivojlantirish strategiyasi

III. Bob. Namanganmexmash aktsionerlik jamiyati biznes strategiyasini rivojlantirish yo'nalishlari

3.1. Korxona maxsulotlari bozorini kengaytirish

3.2. Korxona biznesini rivojlantirish yo'nalishlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

Mavzu: Korxonani strategiyasini baholash

I. Kirish

I. Bob. Korxona strategiyasini baholashning nazariy asoslari

- 1.1. Strategik mavqeni baholash uslublari
- 1.2. Mavqeni tanlashda qaror qabul qilish qoidalari
- 1.3. Strategik moslashuvchanlikni baholash

II. Bob. Namanganvino aktsionerlik jamiyati xo`jalik faoliyatini rivojlantirish strategiyasini taxlili

- 2.1. Namanganvino aktsionerlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati tavsifi
- 2.2. Namanganvino aktsionerlik jamiyatining iqtisodiy ko`rsatkichlari taxlili
- 2.3. Namanganvino aktsionerlik jamiyati faoliyatini rivojlantirish strategiyasini baxolash

III. Bob. Namanganvino aktsionerlik jamiyati biznes strategiyasini rivojlantirish yo`nalishlari

- 3.1. Korxona maxsulotlarini raqobatbardoshligini tahminlash yo`nalishlari
- 3.2. Korxona maxsulotlari bozorini kengaytirish strategiyasi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

8. Kurs ishi mavzulari ruyxati

1. Kompaniyada diversifikatsiyani rivojlantirish imkoniyatlari
2. Kompaniyada raqiblar xujumini oldini olish uchun mudofaa strategiyasini ishlab chiqish
3. Kompaniyada raqobat ustunligini himoyalashdagi strategik usullar
4. Kompaniya strategiyasini belgilovchi omillar va ularning taxlili
5. Kompaniya strategiyasini shakllantiruvchi omillar
6. Kompaniyaning strategik ko`rinishi (tasavvurini) va missiyasini yaratishning mazmuni
7. Kompaniyada xujumkorlik strategiyasini qo`llash uslubiyoti
8. Strategiyaning ishlab chiqish bosqichlari va mazmuni
9. Kompaniyaning yetakchilik strategiyasida xarajatlarning o`rni
10. Strategiyaning shakllantiruvchi omillar
11. Korxonada raqobat mavqeini zaif va kuchli jixatlari tahlili
12. Tarmoqni ta`riflovchi umumiy iqtisodiy ko`rsatkichlar tahlili
13. Firmaning tarmoqdagi rolini baholash turlari va uning ahamiyati
14. Firmada matritsali tahlil yordamida diversifikatsiyaning portfelini baholash
15. Tarmoqdagi umumiy vaziyat va unda raqobat strategiyasini ishlash
16. Kompaniya raqobatbardoshligini ta`minlashda baholar va xarajatlarning o`rni
17. Kompaniyada tabaqalashtirish strategiyasini qo`llashning ahamiyati
18. Firma ishlayotgan tarmoqni ta`riflash turlari va uning mazmuni

19. Kompaniya strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan yondashuvlarning hususiyatlari
20. Tarmoqdagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
21. Strategiyani ishlab chiqishga yondashuvlarning mazmuni
22. Tarmoqdagi umumiy vaziyat va unda raqobat strategiyasini ishlab chiqish
23. Tashkilotning kuchli va kuchsiz tomonlarini namoyon bo'lishi

Amaliy topshiriqlar

I. O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyati iqtisodiy kursatkichlarini taxlil qilish.

II. Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalarning boshqaruv strategiyalari bilan tanishib chiqish va taxlil qilish.

III. Viloyatdagi iqtisodiy nochor korxonalarni faoliyatini o'rganish va ular iqtisodiyotini rivojlantirish uchun namunaviy strategiyalarni ishlab chiqish.

«STRATEGIK MENEJMENT» fanidan kurs ishini bajarish jarayonida foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. “Xalq so`zi” gazetasi. 2016 yil. 15 yanvar.
2. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo`l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. –T.: O`zbekiston, -72 bet. O`zbek va rus tillarida.
3. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o`sinh sur`atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o`zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo`ladi”. Prezident Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi// Xalq so`zi, 2014 yil 19 yanvar.
4. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish. // Xalq so`zi. 19 yanvar. 2013.
5. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi. –T.: O`zbekiston, 2012.
6. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini tahminlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo`lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz. –T.: O`zbekiston, 2012.
7. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston, 2012.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontse`tsiyasi: O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi mahruzasi. T.: - O`zbekiston, 2010, 56 b.
9. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni Strategik-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan muhim yq`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisidagi mahruzasi. T.: - O`zbekiston, 2011, - 48b.
10. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chukurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontse`tsiyasi” mavzusidagi mahruzasini o`rganish bo`yicha o`quv– uslubiy majmua. T.: - “Iqtisodiyot”2010, 281b.
11. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni Strategik-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan muhim yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi

Vazirlar Maxkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. mavzusidagi mahruzasini o’rganish bo’yicha o’quv– uslubiy majmua. T.: “Iqtisodiyot”2011, 377b.

12. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O’zbekiston ni Strategik-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga bagishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” mavzusidagi mahruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot. - 2012. – 282 bet.

13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari- T: O’zbekiston, 2010.

14. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni Strategik-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi// Xalq so’zi, 2010 yil 14 fevral.

15. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” Davlat Dasturi to’g’risidagi ‘Q 805-sonli Qarori 2008 yil 29 fevralda qabul qilingan.

16. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni Strategik-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. G’G’ Xalq so’zi gazetasi 2008 yil 9 fevral.

17. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” Davlat Dasturi to’g’risidagi ‘Q 805-sonli Qarori 2008 yil 29 fevralda qabul qilingan.

18. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni Strategik-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi gazetasi 2008 yil 9 fevral.

19. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O’zbekistonni Strategik-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so’zi, 2010 yil 30 yanvar .

20. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. –Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so’zi, 2010 yil 28 yanvar.

21. Yo’ldoshev N.Q. va b, “Strategik menejment”. Darslik. –T.:TDIU, 2013 y.

22. Yo’ldoshev N.Q. va b, “Strategik menejment”. O’quv qo’llanma. – T.:TDIU,2003.-250b

23. Yo’ldoshev N.Q. va b, “Strategik menejment”. O’quv-uslubiy majmua. – T.:TDIU, 2013 y.

24. Malenkov Yu.A.. Strategicheskiy menedjment. Uchebni,-M.:Prospekt. 2009,-224s

25. Fattaxov A.A. Strategii marketinga v optovoy trgovle i puti povisheniya yee effektivnosti. – T.: Fan, 2005
26. Gomez-Mejia, Luis R.; David B. Balkin; Robert L. Cardy (2008). Management: People, Performance, Change, 3rd edition. New York, New York USA: [McGraw-Hill](#). p. 19. [ISBN 978-0-07-302743-2](#).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lapigin Yu.N. Strategicheskiy menedjment. Uchebnoe posobie. – M.: Eksmo, 2010. – 432 str.
2. Vesnin V.R. Menedjment v sxemax i opredeleniyax: Uchebnoe posobie. – M.: Prospekt, 2009. – 120 str.
3. Danilin V.I. Finansovo'y menedjment: zadachi, testy, situatsii. Uchebnoe posobie. – M.: Prospekt, 2009. – 360 str.
4. Malenkov Yu.A. Strategicheskiy menedjment. Uchebnik. – M.: Prospekt, 2009. – 224 str.
5. Yo'ldoshev N.Q. va b. Strategik menejment. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2003. – 250 bet.
6. Kruglova N.Yu., Kruglov M.I. Strategicheskiy menejment. Uchebnik M.: RDL, 2009.-317 s.

Internet va Ziyonet saytlari

1. <http://www.economics.ru>;
2. <http://www.ved.ru>;
3. <http://www.ser.ru>;
4. [http:// www. uza.uz](http://www.uza.uz)
5. <http://www.ifmr.uz/>;
6. <http://www.lex.ru>;
7. <http://www.ziyonet.uz/>;
8. <http://www.managment.ru>;

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK –PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TEXNOLOGIYA ” FAKUL’TETI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

**“STRATEGIK MENEJMENT” FANIDAN TAYYORLAGAN
KURS ISHI**

Tayyorladi:_____gurux talabasi_____

Raxbar:_____

_____ fakul'teti
_____ ta'lim yo'nalishi
_____ kurs _____ guruh talabasi _____ ning

_____ mavzusida bajargan kurs ishiga berilgan

TAQRIZ

Kurs ishi rejasi: _____

Kurs ishi mazmuni:

Grafik ma'lumot:

Kurs ishining kamchiliklari: _____

Xulosa

« ____ » _____ 20 ____ y.

Taqrizchi:

_____ (taqrizchining lavozimi, ismi va familiyasi) _____ (imzo)

KURS ISHIGA BERILGAN VAZIFA

Mavzu:_____

Asosiy ko`rsatmalar:_____

Ish rejasi:_____

1._____

2._____

3._____

Qabul qildim:_____guruh talabasi_____

Rahbar: _____

(o`qituvchining ilmiy darajasi va f.i.sh.)

(imzo)

Muddati « ____ » _____ 20__ yil.

